



BOSHLANG‘ICH SINIF “TARBIYA” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MILLIY-AXLOQIY TARBIYALANGANLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH MEZONLARI VA USULLARI

Qo‘shnazarova Nozima Maxmutjon qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

nozima.0739@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalanganlik darajasini pedagogik diagnostika qilishning mazmuni, mezonlari va usullari tahlil etilgan. Diagnostika jarayonida o‘quvchining qadriyat haqidagi bilimlari bilan bir qatorda, unga bo‘lgan shaxsiy munosabati, hayotiy vaziyatdagi axloqiy tanlovi, kundalik xulq-atvorida qadriyatlarning namoyon bo‘lishi va o‘z harakatlarini baholash ko‘nikmalarini o‘rganish zarurligi asoslangan. Kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-faoliyatli hamda refleksiv-baholovchi mezonlar mazmuni ochib berilib, ularga mos pedagogik kuzatuv, suhbat, vaziyatli va aporetik topshiriqlar, narrativ tahlil, refleksiv savollar hamda ota-onalar bilan qisqa muloqot usullaridan o‘zaro bog‘liq holda foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan. Taklif etilgan yondashuv diagnostika natijalarini tarbiyaviy ishlar mazmunini aniqlash va individual pedagogik ko‘makni belgilash uchun qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: “Tarbiya” darsi, milliy qadriyat, axloqiy tarbiyalanganlik, pedagogik diagnostika, diagnostik mezon, pedagogik kuzatuv, vaziyatli topshiriq, refleksiv baholash.

KIRISH

Boshlang‘ich ta‘lim davri bolaning axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlarga nisbatan dastlabki ongli munosabati shakllanadigan muhim bosqichdir. Bu yoshda o‘quvchi yaxshilik va yomonlikni farqlash, to‘g‘ri va nomaqbul xatti-harakatlarni baholash, o‘z burchi hamda mas‘uliyatini anglashga oid tasavvurlarni oiladagi kundalik munosabatlar, maktab muhiti, sinfdoshlar bilan muloqot va o‘qituvchining shaxsiy namunasi orqali o‘zlashtiradi. Salomlashish, minnatdorchilik bildirish, kattalarni tinglash, kichiklarga mehr ko‘rsatish, topilgan buyumni egasiga qaytarish, jamoaviy ishda o‘z vazifasini bajarish kabi oddiy ko‘ringan harakatlar bolaning milliy-axloqiy tarbiyalanganlik holatini namoyon etuvchi real belgilar hisoblanadi. “Tarbiya” fani ana shu hayotiy tajribalarni tushuncha, munosabat va amaliy xulq birligida tartibga solish imkonini beradigan alohida pedagogik maydon sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarori bilan tasdiqlangan “Tarbiya” fani konsepsiyasida o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda faol fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik, insonparvarlik, mas‘uliyat va ijtimoiy hamkorlik sifatlarini rivojlantirish vazifalari belgilangan [1]. Bu vazifalar tarbiyaviy natijani faqat mavzu yuzasidan berilgan javoblar bilan o‘lchash yetarli emasligini ko‘rsatadi. O‘quvchi “halollik”, “hurmat” yoki “mehr-oqibat”

tushunchasini to'g'ri izohlashi mumkin, biroq ularning mazmuni bolaning tanlovida, muomala ohangida, tengdoshiga yordami va o'z xatti-harakatini baholashida namoyon bo'lmasa, mazkur bilimni barqaror tarbiyaviy natija sifatida qabul qilish qiyin. Demak, pedagogik diagnostika bilimni tekshirishdan kengroq bo'lib, o'quvchining qadriyatlarga bo'lgan shaxsiy qarashini ham ochib berishi lozim.


Pedagogik diagnostika o'quvchining mavjud holatini qayd etish bilangina cheklanmaydi; u o'zgarishlar dinamikasini kuzatish, qiyinchiliklarning sabablarini anglash va keyingi pedagogik faoliyatni aniq ehtiyojga moslashtirish imkonini beradi. Sh.A. Abdullayeva pedagogik diagnostikani ta'lim-tarbiya jarayonidagi natijalar, munosabatlar va rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiluvchi tizimli faoliyat sifatida talqin etadi [2]. Bu qarash boshlang'ich sinfda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kichik yoshdagi o'quvchi o'z ichki munosabatini har doim ham batafsil so'zlab bera olmaydi. Uning fikri qisqa javob, rasm, hikoyani davom ettirish, vaziyatdagi tanlov, tengdoshiga munosabat yoki o'qituvchi kuzatgan kundalik xatti-harakat orqali ko'proq ochiladi.

Milliy qadriyatning bola tomonidan o'zlashtirilishi bilim, hissiy munosabat va amaliy harakatning uzviy bog'lanishida kechadi. M. Quronov milliy tarbiyani bilim, so'z va amal birligida tushuntirib, qadriyatning kundalik xulqda ifodalanishini tarbiyaviy natijaning muhim belgisi sifatida ko'rsatadi [3]. T. Lickona ham axloqiy rivojlanishni moral knowing, moral feeling va moral action, ya'ni axloqiy bilish, axloqiy his qilish va axloqiy harakat birligi orqali izohlaydi [4]. UNESCOning global fuqarolik ta'limiga oid pedagogik yo'riqnomasida ta'lim natijalari kognitiv, ijtimoiy-hissiy va xulqiy yo'nalishlarda yoritilgan bo'lib, ularning bir-birini to'ldirishi ta'kidlanadi [5]. Ushbu yondashuvlar "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning qadriyatga qanday munosabatda bo'lishini va real vaziyatda qanday yo'l tutishini ham o'rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning milliy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar va usullarni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha belgilandi: o'quvchining milliy qadriyat haqidagi bilimi, unga bo'lgan shaxsiy munosabati, hayotiy vaziyatdagi axloqiy tanlovi, kundalik xulqida qadriyatlarning namoyon bo'lishi va o'z harakatini baholash ko'nikmasini qanday diagnostik vositalar orqali yaxlit aniqlash mumkin?

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-metodik xususiyatga ega bo'lib, unda pedagogik diagnostika, milliy tarbiya va axloqiy rivojlanishga oid ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, amaldagi "Tarbiya" fani konsepsiyasi hamda 3-4-sinf darsliklarining tarbiyaviy mazmunini kontent-tahlil qilish, diagnostik mezonlarni tizimlashtirish va pedagogik vaziyatlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. P. Black va D. Wiliam shakllantiruvchi baholashning samarasi olingan ma'lumot o'qitish jarayonini moslashtirish, o'quvchiga mazmunli qayta aloqa berish va uni o'z faoliyatini baholashga jalb etish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadilar [6]. Shu nuqtayi nazardan, milliy-axloqiy diagnostika keyingi tarbiyaviy ishni rejalashtirishga yordam beruvchi pedagogik aloqa shakli sifatida qaraldi.



Diagnostik mazmuni belgilashda “qadriyatni anglash – qadriyatga munosabat – axloqiy tanlov va xulq – o‘z harakatini baholash” mantiqiy izchilligi asos qilib olindi. Mazkur izchillikdan kelib chiqib, to‘rtta o‘zaro bog‘liq mezon ajratildi: kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-faoliyatli va reflektiv-baholovchi mezonlar. Mezonlar o‘quvchi shaxsini bir xil vaziyatda uning tushunishi, munosabati, tanlovi va izohini birgalikda ko‘rish uchun tanlandi. Masalan, “maktab hovlisidan topilgan buyum” vaziyatida o‘quvchi halollik mazmunini tushuntirishi kognitiv jihatni, buyumni egasiga qaytarishga ichki moyilligi qadriyatli-motivatsion jihatni, tanlagan amaliy yo‘li xulqiy-faoliyatli jihatni, qarorini nima uchun to‘g‘ri deb bilishini izohlashi esa reflektiv-baholovchi jihatni namoyon etadi.

Diagnostik usullarni tanlashda o‘quvchining yosh xususiyati, nutqiy imkoniyati va kundalik tajribasiga yaqinlik hisobga olindi. Pedagogik kuzatuv darsdagi va darsdan tashqari tabiiy xatti-harakatlarni qayd etishga, suhbat qadriyat haqidagi tasavvur va shaxsiy munosabatni ochishga, vaziyatli topshiriq axloqiy tanlovni ko‘rishga, aporetik vaziyat esa ikki ijobiy qadriyat yoki mas‘uliyat o‘rtasidagi muvozanatni topish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Narrativ topshiriqlarda o‘quvchi hikoyani davom ettiradi yoki qahramonning qarorini izohlaydi; reflektiv savollar orqali o‘z harakatining sabab va oqibatini ko‘rib chiqadi. Ota-onalar bilan qisqa muloqot va o‘qituvchi kuzatuv varaqalari esa darsdagi javob bilan kundalik xulq o‘rtasidagi muvofiqlikni tekshirish imkonini beradi. Har bir usul alohida ma‘lumotlar bilan birga talqin etiladigan diagnostik manba sifatida qabul qilindi.

NATIJARLAR

Nazariy-metodik tahlil natijasida milliy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashning birinchi tayanchi sifatida kognitiv mezon belgilandi. U o‘quvchining Vatan, oila, mahalla, hurmat, halollik, mas‘uliyat, mehr-oqibat, do‘stlik, mehnatsevarlik va bag‘rikenglik kabi tushunchalar haqidagi yoshiga mos bilimni qamrab oladi. Bunda o‘quvchi qadriyat mazmunini oddiy hayotiy misol bilan bog‘lay olishi, yaxshi va nomaqbul xatti-harakatni farqlashi, vaziyatdagi asosiy axloqiy muammoni ko‘ra bilishi muhimdir. Kognitiv mezonni aniqlash uchun qisqa suhbat, rasm asosidagi savollar, hikoya mazmunini tahlil qilish, maqol va xalq o‘gitlarini hayotiy misol bilan izohlash kabi usullar mos keladi. Savollar bolaning tiliga yaqin va ochiq bo‘lishi kerak: “Halollik qachon ko‘rinadi?”, “Kattaga hurmat faqat salom berish bilan tugaydimi?”, “Sinfda hamma uchun adolatli bo‘lish nimani anglatadi?” kabi savollar o‘quvchining tushunchani qanchalik anglaganini chuqurroq ko‘rsatadi.

Ikkinchi mezon – qadriyatli-motivatsion mezon – o‘quvchining milliy qadriyatlarga shaxsiy munosabati, ularni ichki qabul qilishi va ijobiy xulqqa intilishini ifodalaydi. Bola odatda kattalar kutayotgan javobni tez anglab, “to‘g‘ri” iborani aytishi mumkin. Shuning uchun uning javobi qanday hissiy munosabat bilan berilgani, boshqalarning holatiga befarq yoki hamdard bo‘lishi, oila va Vatan haqidagi suhbatlarda shaxsiy misol keltirishi, adolatsizlikka munosabat bildirishga tayyorligi kuzatiladi. Bu mezonni aniqlashda “Sizga qaysi oilaviy odat yoqadi va nima uchun?”, “Bir bolani masxara qilishayotganini ko‘rsangiz nimalarni his qilasiz?”, “Do‘stingiz boshqa millat bayrami haqida gapirsa, qanday munosabat bildirasiz?” kabi suhbat va vaziyatli savollar samarali. O‘quvchining javobi tayyor qolipga.

qanchalik mos kelishi emas, uning fikrida hurmat, hamdardlik, daxldorlik va ichki rag'batning sezilishi e'tiborga olinadi.

Uchinchi mezon – xulqiy-faoliyatli mezon – milliy va axloqiy qadriyatlarning kundalik harakatda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. O'quvchining darsda boshqalarning fikrini bo'lmasdan tinglashi, sinfdoshiga yordam berishi, umumiy topshiriqda o'z vazifasini bajarishi, navbat va sinf qoidalariga amal qilishi, xatosini yashirmasligi, o'zi boshlagan ishni yakunlashga intilishi shu mezonning kuzatiladigan ko'rsatkichlaridir. Bu jihatni birgina suhbat bilan aniqlash qiyin, chunki bola axloqiy me'yorni bilsa-da, real vaziyatda turlicha yo'l tutishi mumkin. Pedagogik kuzatuv bir necha dars va faoliyat davomida olib borilganda, alohida tasodifiy holat bilan barqaror odat o'rtasidagi farq ko'rinadi. Guruhli ish, rolli vaziyat, kichik jamoaviy topshiriq va darsdan keyingi oddiy muloqotlar o'quvchining hamkorlik, mas'uliyat va odob madaniyatini tabiiy sharoitda kuzatishga imkon beradi.

To'rtinchi mezon – refleksiv-baholovchi mezon – o'quvchining o'z xatti-harakatini tushunishi, qarorining sababini izohlashi, xatosini anglashga tayyorligi va kelgusidagi xulqini rejalashtira olishiga taalluqlidir. Boshlang'ich sinfda refleksiya murakkab nazariy tahlil tarzida emas, sodda, ammo mazmunli savollar yordamida yuzaga chiqariladi: "Nima uchun shunday yo'l tutding?", "Bu qaroring kimga qanday ta'sir qildi?", "Yana qanday yo'l bo'lishi mumkin edi?", "Keyingi safar nima qilasan?" O'quvchi dastlab qisqa javob berishi yoki o'qituvchi ko'magiga ehtiyoj sezishi tabiiy. Muhimi, u o'z harakatiga tashqaridan qarashni, oqibatini ko'rishni va boshqa fikrni eshitishni o'rganib boradi. Refleksiv mini-karta, gapni davom ettirish, "men tushundim – men his qildim – men keyingi safar..." shaklidagi yakuniy savollar mazkur mezonni yumshoq va yoshga mos tarzda aniqlashga yordam beradi.

Diagnostik usullar ichida vaziyatli topshiriqlar alohida ahamiyatga ega, chunki ular bilim va real tanlov o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. "Sinfdoshing ruchkasini unutilib qoldi, senda ikkita ruchka bor", "Maktab hovlisidan qalam topib olding, seni hech kim ko'rmadi", "Do'stingning kulgili rasmi sinf guruhiga yuborildi" kabi holatlar bola uchun tushunarli bo'lib, mehr-oqibat, halollik va raqamli odob haqidagi qarashlarini ochadi. Aporetik vaziyatlar esa birgina tayyor javobni topishga emas, ikki axloqiy talabni muvozanatlashga undaydi. Masalan, do'stini xafa qilmaslik va haqiqatni aytish, kattaga hurmat ko'rsatish va adolatsizlikka befarq qolmaslik, sir saqlash va xavfli vaziyat haqida ishonchli kattaga xabar berish o'rtasidagi tanlov o'quvchini qarorining oqibatlarini o'ylashga majbur qiladi. Bunday topshiriqlarda javobni darhol "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb belgilashdan ko'ra, bola nima uchun shu yo'lni tanlaganini tinglash diagnostik jihatdan qimmatlidir.

Olingan ma'lumotlarni umumlashtirishda yuqori, o'rta va boshlang'ich darajalar tavsifidan foydalanish o'rinlidir. Yuqori darajada o'quvchi qadriyat mazmunini tushunadi, hayotiy vaziyatga mustaqil ko'chiradi, tanlovini asoslaydi va kundalik xulqida unga amal qilishga intiladi. O'rta darajada asosiy tushuncha va ijobiy munosabat mavjud bo'lsa-da, murakkabroq vaziyatda yo'naltiruvchi savol, namuna yoki pedagogik ko'mak zarur bo'ladi. Boshlang'ich darajada qadriyat haqidagi tasavvur shakllanish jarayonida bo'lib, bola hayotiy misolni tushunish, munosabat bildirish va qarorini izohlashda ko'rgazmali hamda qo'llab-

quvvatlovchi topshiriqlarga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Daraja bir necha usuldan olingan ma‘lumotlarning umumiy natijasi asosida belgilanadi; bitta javob yoki bir martalik xatti-harakat yakuniy xulosa chiqarish uchun yetarli deb hisoblanmaydi.

MUHOKAMA

Taklif etilgan mezonlar milliy-axloqiy tarbiyalanganlikni bilimdan xulqqacha bo‘lgan izchil, lekin qat‘iy chiziqli bo‘lmagan jarayon sifatida ko‘rishga imkon beradi. O‘quvchi ba‘zan qadriyat mazmunini yaxshi tushuntiradi, ammo tengdoshlari bilan munosabatda uni barqaror namoyon eta olmaydi; boshqa holatda esa to‘g‘ri harakat qiladi, lekin qarorining sababini so‘z bilan izohlashda qiynaladi. Shu sababli kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-faoliyatli va reflektiv-baholovchi mezonlar bir-birini to‘ldiradi. Lickonaning axloqiy bilish, his va harakat birligi haqidagi qarashi [4], UNESCOning kognitiv, ijtimoiy-hissiy va xulqiy natijalarni uyg‘un ko‘rish yondashuvi [5] hamda milliy tarbiyada bilim, so‘z va amal birligining ta‘kidlanishi [3] mazkur diagnostik tuzilmaning nazariy mantiqini mustahkamlaydi. Biroq boshlang‘ich sinf sharoitida bu tarkiblar hayotiy savol, tabiiy kuzatuv va bolaga tushunarli vaziyat orqali aniqlanishi kerak.

Diagnostikaning amaliy qiymati natijadan qanday foydalanilishiga bog‘liq. Agar o‘quvchi qadriyatni bilsa-yu, hayotiy vaziyatda uni qo‘llashda qiynalsa, keyingi darslarda rolli mashqlar, vaziyatli muhokama va jamoaviy faoliyat kuchaytiriladi. Agar u to‘g‘ri tanlov qilsa, lekin qarorini izohlashga qiynalsa, hikoyaviy topshiriq, “nima uchun?” savoli, dalil keltirish va reflektiv kartalarga ko‘proq o‘rin beriladi. O‘quvchining oiladagi va maktabdagi xulqi keskin farq qilsa, ota-ona bilan ayblovsiz, qisqa va aniq muloqot o‘tkazilib, bola uchun yagona tarbiyaviy talablar kelishib olinadi. Black va Wiliam ta‘kidlaganidek, baholash ma‘lumoti o‘qitish jarayonini moslashtirish uchun ishlatilgandagina rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etadi [6]. Shu ma‘noda milliy-axloqiy diagnostika natijasi o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona uchun keyingi qadamni ko‘rsatuvchi pedagogik yo‘nalish bo‘lishi lozim.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning milliy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash bilimni tekshirish, xulqni kuzatish va yakuniy baho qo‘yish bilan cheklanmaydi. Ishonchli pedagogik xulosa o‘quvchining qadriyatni qanday anglagani, unga qanday shaxsiy munosabat bildirgani, hayotiy vaziyatda qanday tanlov qilgani, bu tanlov kundalik xulqida qay darajada namoyon bo‘lgani hamda o‘z harakatini tushuntira olishini birgalikda o‘rganish orqali shakllanadi. Kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-faoliyatli va reflektiv-baholovchi mezonlarning o‘zaro bog‘liq qo‘llanishi, pedagogik kuzatuv, suhbat, vaziyatli va aporetik topshiriqlar, narrativ tahlil hamda reflektiv savollarning bir-birini to‘ldirishi diagnostikaning tabiiy va rivojlantiruvchi bo‘lishiga yordam beradi. Bunday yondashuv o‘quvchini “yaxshi” yoki “yomon” deb ajratmaydi; aksincha, uning qaysi jihati shakllanganini, qayerda pedagogik ko‘mak kerakligini va keyingi “Tarbiya” darslarida qanday metodik yo‘l tanlash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ‘Tarbiya’ fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
 2. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
 3. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
 4. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1992.
 5. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2015.
 6. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, No. 1. – P. 7–74. DOI: 10.1080/0969595980050102.
 8. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
- 